

**“SIBIRDA ISLOM DININING MADANIY TA‘SIRI”**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13887495>

*Buxoro shahridagi*

*Prezident maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Raxmatov Ramshod Raximovich**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Islom dini mazmum-moxiyati, uning naqadar mukammalgi, islom mamlakatlarining madaniy hayoti, Sibir xonligida islom dinining qabul qilinishi va mamlakatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga tasir qilishi haqida qisqacha so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘z:** *Islom dini, xonlik, ta‘limot, tarix, Rossiya, Buxoro, Sibir, Kuchumxon, Maskva.*

Islom dini eng mukammal din bo‘lib, inson hayotining barcha jabhalarini o‘z ichiga qamrab olgan. Ya'ni, musulmon kishining yurish-turishi, kiyinishi va boshqa barcha ishlari islomiy madaniyatga mos kelishi zarur. Lekin ming afsuslar bo‘lsinki, hozirgi vaqtda qo‘shirnoq ichidagi "ommaviy madaniyat"ga ko‘pgina yoshlarning ko‘r-ko‘rona ergashib ketayotganlari, buning oqibatida esa ularning odob-axloqlari yomonlashib, iymon-e'tiqodga zid bo‘lgan g‘arbliklarning axloqsizligiga taqlid qilishlari juda ham achinarli holat hisoblanadi.

Sibir xonligida islom dinining kirib kelish, tarqalish jarayoni xususida tarixiy adabiyotlarda turli ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, tarixiy manba va adabiyotlarda mintaqadga islom dinining ilk bora kirib kelishi XII-XIII asrlarda O‘rta Osiyo savdogarlarining uyushmalari vujudga kelgan vaqtga to‘g‘ri kelishi bilan bog‘liq ma‘lumotlar uchraydi. Bizning fikrimizcha bu u qadar to‘g‘ri ma‘lumot bo‘lmay, Sibir mintaqasida islomni kirib kelishi bundan ancha oldinroq sodir bo‘lgan deyishga barcha asoslar etarli. Ammo, tarqalish geografiasining torligi, muxlislarining kamligi, shuningdek, Buxoro bilan bog‘liq jihatlariga oid qo‘limizda aniq-fakt dalillar bo‘lmaganligi sababli, mavzumiz Buxoro va Sibir xonliklari mavjud bo‘lib turgan xronologik chegarani qamrab olganligi kabilardan kelib chiqib ushbu masalalarga to‘xtalib o‘tirishni lozim deb hisoblamaymiz.

Ko‘plab tarixiy adabiyotlarda Sibirga islom dinini kirib kelishi yarim afsonaviy tarzda, Bahouddin Naqshband ta‘limoti pirlari 366 kishi va 1700 kishilik qo‘shin tomonidan Irtish daryosi bo‘yiga kelishi va mahalliy g‘ayridinlar bilan urush qilganliklari, ushbu urushda katta talofotlarga qaramay naqshband

izdoshlari g'alaba qilgani, ularning bir qismi ushbu erlarga din targ'iboti uchun qolganliklariga oid ma'lumotlar keltirib o'tilganligini ko'rish mumkin.

Islom dinini targ'ib qilishda Bahouddin Naqshband izdoshlariga buxorolik ayollar ham yo'ldoshlik qilgan bo'lib, ularning nomlari manbalarda Oqilabibi, Anipabibi, Xadichabibi, Solihabibi ekanligi, o'z umr yo'ldoshlari bilan islom dini targ'iboti uchun Sibirda qolganliklariga oid ma'lumotlar mavjud. Ushbu ma'lumot asosida ma'lum bir qism buxorolik savdogarlar yoki siyosiy migrantlarning mintaqada o'rnashib qolganligiga ishora mavjud deb ham xulosa qilish mumkin. Ko'plab tarixiy adabiyotlarda dinining tarqalishi eng avvalo savdo-iqtisodiy aloqalarga bog'liq ekanligi keltirib o'tilgan. Sibirda ham islom dinining keng tarqalishida hatto Kuchumxondan yuz yillar oldin savdogarlar tabaqasi faol ishtirok etganligiga oid fikr-mulohazalar ham adabiyotlarda qayd etib o'tilgan. Tobolsk universitetida saqlanayotgan "Sibirda islom dinining tarqalishi" deb nomlangan o'zbek tilidagi manbada shu vaqtdan boshlab, Buxoroda savdo karvonlarining ko'plab kelishi, ular bilan din peshvolarining ham kirib kelgani, ushbu shaxslar vafotidan keyin ham ulug'lanib, avliyo darajasiga ko'tarilganliklariga oid ma'lumotlar mavjudligini H.Ziyoev keltirib o'tganliklarini ko'rish mumkin. Bu erda ham qo'lyozma manbada islom dini targ'ibotchilari va savdogarlar yonma-yon qo'yilishi yuqoridagi fikrlarimizni asoslashga xizmat qiladi.

Sibir va Buxoro o'rtasidagi turli munosabatlar ancha qadimgi zamonlarga borib taqalsada, tarixiy adabiyotlarda aynan 1394-1395-yillardagi diniy urushdan so'ng Buxorodan keladigan ding ulamolari va din targ'ibotchilari faoliyatidan keyin muntazam tus olganligi keltirib o'tilganligiga oid fikrlarni uchratish mumkin. 1394-1395-yillar xronologik jihatdan Amir Temur saltanati eng kuchaygan davrlarga to'g'ri kelishini inobatga olsak, Buxoro xonligi xususida biror fikr-mulohaza bo'lishi mumkin emasdi. Bir guruh olimlarning fikricha, 1394-1395-yillar deb keltirilayotgan naqshbandiya pirlarining Sibirni islomlashtirish uchun qilgan yurishlari sof afsonaviy xarakterga ega bo'lib, uning afsonaga aylanishiga xizmat qilgan tarixiy jarayon 1480-yillarda Tyumenga shayboniylarning kirib kelishi asnosida vujudga kelgan bo'lib, istiloni oqlash maqsadida islomlashtirish shiori asos qilib qolingan.

Rossiya tarixiga oid adabiyotlarda Sibirda islom dinining tarqalish jarayoni Kuchumxon hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng, Buxoro xoni Abdullaxon ta'sirida islom dini targ'iboti boshlanganligiga oid ma'lumotlar keltirilgan. SHu bilan bir qatorda Sibir xonligida islom dini tarqalgan asosiy mintaqa sifatida xonlik poytaxti Isker va unga tutash hududlarda islom dini tarqalganligi keltirib o'tilgan. Ayrim

tarixiy adabiyotlarda Sibirga Buxorodan savdogarlar va din targ'ibotchilari kelib o'rnashishi Kuchumxon davriga to'g'ri kelishi qayd etilgan bo'lsa, ayrimlarida bu holat Kuchumxondan ancha ilgari bo'lganligiga oid ma'lumotlarni qayd etadi. Bunday fikr-mulohazani O.N.Vilkov keltirib o'tganligini ko'rishimiz mumkin.

XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida tarixchi olim N.F. Katanov tomonidan Sibir tatarlarining "Shayx Bahouddin Naqshband shogirdlarining G'arbiy Sibirda g'ayridinlarga qarshi diniy urushlari haqida (Tobolsk gubernasi muzeyidagi qo'lyozmalar asosida" qo'lyozmani chop ettirgan. Ularda Sibirda islom dinining tarqalishi xususida muhim ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.

Rossiyalik olim D.M.Ishoqov bergan ma'lumotlarda, Muhammad Shayboniyxonga Naqshbandiy pirlar o'z talablari bilan chiqib, Qozoq dashtlari Irtish daryosi bo'ylarida islom dinini mustahkamlash zarurligini ta'kidlaganlar. Naqshbandiylik pirlarining qo'llab-quvvatlashidan mahrum bo'lib qolishdan cho'chigan Shayboniyxon 1508-1509 yillarda yuqorida tilga olingan hududlarda g'azovot harbiy yurishini tashkil etganligiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida islom dini Muhammad Shayboniyxon davrida ya'ni, XV asrning oxiri - XVI asr boshlarida tarqala boshlagan deb xulosa qilish mumkin. Ammo, ushbu fikr-mulohazalarni ham rad etuvchi fikr-mulohazalar bildirilgan tarixiy adabiyotlar mavjud bo'lib, tatar tarixchi olimi

G.L. Fayzraxmanov o'z izlanishlarida Sibirda islom dini tarqalishi XIV asrdan boshlab sodir bo'lganligini, islom dinining targ'ib qilinishi mahalliy turk-tatar xalqlarining azaliy dini bo'lgan tangrichilik diniga qarshi qat'iy kurash bilan qo'shib olib borilganligiga oid ma'lumotlarni keltirib o'tganligini ko'rish mumkin.

Shunday bo'lsada, bu dastlabki urinishlardan bo'lib, keltirib o'tilgan xronologik chegarada sibir aholisining hech bo'lmaganda asosiy qismi islom diniga kirganini anglatmaydi. Bunday xulosa qilishimizga tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, bir qator olimlar D.N. Maslyujenko, A.G. Sitdikova, R.R. Xayrutdinovalar, Sibirda islom dini targ'iboti XIV asrning oxiri-XV asr boshlarida boshlangan bo'lib, aholi orasida islom dini targ'ib qilina boshlangan bo'lsada, Sibir aholisi boy va zodagon qatlami islom dinini qabul qila boshlagan degan fikr mulohazalarni keltirib o'tadilar. Shu bilan bir qatorda ularning ushbu ko'rsatgan xronologik chegarasi ham Shayboniyxon tomonidan Sibir erlariga qo'shin tortib kelish xronologik jarayoni bilan aynan bir davr ekanligini ham esdan chiqarmaslik kerak.

Sibirda islom dinini tarqalishi Kuchumxon va undan keyin Moskva davlati tomonidan istilo qilingandan so'ng ham davom etgan. SHu sababli bo'lsa kerak, bir qator olimlar islom dini tarqalishini XVII-XVII asrlarda sodir bo'lgan deb

hisoblaydilar. Jumladan, SH.K.Axmetova, I.V.Belich, A.K.Bustanov, H.Z.Ziyaev, S.A.Tokarev, N.A.Tomilovlar islom dini Sibirga XIV–XVII asrlarda tarqalganligiga oid fikr-mulohazalarni o‘z ilmiy izlanishlari, maqola va asarlarida qayd etib o‘tganliklarini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Sibir, ayniqsa uning janubiy g‘arbiy qismi Oltin O‘rda, O‘rta Osiyo davlatlari bilan uzoq vaqtlar yaqin aloqada bo‘lgan bo‘lsada uning aholisi orasida islom dini keng tarqalmagan. Abulxayrixon tomonidan 1429-yilda Sibirning janubiy-g‘arbiy hududlari istilo qilinib, uning hukumronligi o‘rnatilgan bo‘lsada, bu Sibir aholisini islom diniga e‘tiqod qilishini yoki Abulxayrixon tomonidan islom dini targ‘ibotini anglatmagan. Bu davrda Sibir aholisining katta qismi g‘ayriddinligi holatida qolgan bo‘lib, bu xususda A.P. Yarkov o‘z tadqiqot ishlari natijalarida keltirib o‘tganligini ko‘rishimiz mumkin.

Xulosa o‘rnida Sibirda islom dinining tarqalishi IX-XII asrlarda sodir bo‘lgan bo‘lsada, ushbu din ixlosmandlari bir necha asr davomida etarli darajada topilmagan. Biz ko‘rib chiqayotgan tarixiy davr XV-XVI asrlarda Sibirda islom dini rivoji shayboniylar sulolasining sa‘y-harakatlari natijasida sodir bo‘lgan. Islom dini sibir xalqlari orasida davlatchilik, xo‘jalik va ma‘naviy hayot rivojini ta‘minlagan bo‘lib, iqtisodiy-ijtimoiy, diplomativa xalqaro aloqalarda yagona Sibir xalqining mafkurasi sifatida ko‘rildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абулғози Баходирхон. Шажараи Турк. –Т.: Чўлпон,1992.–167 б
2. Бембеев В.Ш. Ойраты и калмыки на Евразийском пространстве (XIII 60-е гг. XVII века). // Автореферат на соискание ученой степени доктора исторических наук. – Ставрополь: 2006. – 44 с.
3. Бояршинова З.Я. Степанов Н.Н. Западная Сибирь в XIV-XVI вв. // Материалы по истории Сибири. - Улан Удэ, 1964. - 740 с.
4. Бустанов, А.К. Книжная культура сибирских мусульман = The book culture of siberian muslims / А.К. Бустанов. – М.: Изд. дом Марджани, 2013. - 264 с.
5. Валеев Ф.Т. Сибирские татары: культура и быт. – Казань, 1993. – 208 с.
6. Вилков О.Н. Ремесло и торговля Западной Сибири в XVII в. - М.: Наука, 1967. – 324 с.